

Mablag'larining maqsadli sarflanishi nazorati kuchaytirilmoqda

Ichki audit boshqarmasining 2024-yilning I yarim yillikdagi faoliyati to'g'risida

Soliq qo'mitasi tomonidan tizimli ravishda soliq xizmati tuzilmalarida byudjet va jamg'arma mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan amaliy nazorat tadbirlari davom ettirilmoqda.

Jumladan, qo'mitaning Ichki audit boshqarmasi tomonidan 2024-yilning I yarim yilligida 17 ta soliq organi tuzilmalarida o'tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklarning 2 427,8 mln so'mi to'liq bartaraf etildi.

Kamchiliklarga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan belgilangan tartibda intizomiy jazo choralari qo'llanilib, tegishli hujjatlar huquqni muhofaza qilish organlariga yuborildi.

Kelgusida kamchiliklarning oldini olish maqsadida masofaviy nazoratni **raqamlashtirish** va xodimlarning kasbiy malakasini oshirish ishlari reja asosida davom ettirilmoqda.

Ichki audit boshqarmasi